SUSTAINABLE TOURISM IN KARAKALPAKSTAN: LINKING CULTURE, COMMUNITIES, AND ECOLOGY.....	1179
<b>Indira Ermekebaeva</b>	
TARIFLASH VA REZERVLASHNING ILMIY-AMALIY MODEL (O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN).....	1184
<b>Maxmudov Komoliddin Rozmetovich</b>	
XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	1188
<b>Akmalova Ziyoda Doniyorovna</b>	
ECONOMIC EFFECTS OF GASTRONOMIC TOURISM: AN ANALYSIS OF TOURISTS' FOOD EXPENDITURE PATTERNS.....	1193
<b>Iroda Abdieva G'ayrat kizi</b>	
WAYS OF IMPROVING AGRITOURISM IN UZBEKISTAN .....	1198
<b>Ruxangiz Mirfayzovna Mavlonova, Istamkhuja Olimovich Davronov</b>	
TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI.....	1203
<b>Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich</b>	
YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1208
<b>Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li</b>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISH: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR.....	1213
<b>Zokirov Fayzullo Maxamatovich</b>	
ЦИФРОВОЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПРОДВИЖЕНИЯ БРЕНДА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА НА МЕЖДУНАРОДНОМ ТУРИСТИЧЕСКОМ РЫНКЕ.....	1219
<b>Суюнова Камилла Бахромовна, Файзуллаев Аслиддин Сафар угли</b>	
ТЕОРИЯ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО ВЫБОРА: ОБЗОР КЛАССИЧЕСКИХ ПАРАДИГМ, МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ ПОДХОДОВ И СОВРЕМЕННЫХ ВЫЗОВОВ .....	1223
<b>Камилова Наргиза Абдукажоровна</b>	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К МОНЕТАРНОЙ ПОЛИТИКЕ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ИНФЛЯЦИЮ И ЗАНЯТОСТЬ .....	1227
<b>Камилова Наргиза Абдукажоровна, Асадова Шоҳида Азаматовна</b>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TAKOFUL SUG'URTA FONDLARINI SHAKLLANTIRISH.....	1232
<b>Alimov Sherzod Choriyevich</b>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1238
<b>Bo'taev O'tkir Eshboevich</b>	
PUL MABLAG'LARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI.....	1242
<b>Xalikov Baxrom Shomurovich</b>	
O'ZBEKISTON SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA ENERGIYA TA'SIRINI QISQA VA UZOQ MUDDATLI BAHOLASH SAMARASI .....	1247
<b>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</b>	
IQTISODIYOTDA ENERGIYA TIZIMINING TUTGAN O'RNINI MODELLASHTIRISHDA ARDL MODELINING NAZARIY AHAMIYATI .....	1252
<b>Kuralbayev Jo'rabek Oybekovich</b>	



DAVLAT TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING XORIJIY TAJRIBALARI .....	1256
Salamov Islom Tashkazzakovich	
МЕХАНИЗМ ОПТИМИЗАЦИИ СТРУКТУРЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА.....	1263
Касимова Наргиза Сабитджановна	
SIRKULAR BIZNES-MODELLARNI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI EVOLYUTSIYASI.....	1268
Isamuxamedov Boxodir Baxramovich	
HUDUDIY MARKETING KONSEPSIYASI ASOSIDA NAVOIY VILOYATINING EKOTURISTIK RESURLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI .....	1274
Shodiyev Sanjar Ruzukulovich, Abdurahmonova Shahlo Serali qizi	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH .....	1281
Sabirov Xamid Qo'ziboyevich	
HUDUDLARNI BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	1285
N.Bekmurodov	
KORXONALAR INVESTITSION VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	1291
Gafurova Umida Fatixovna	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI .....	1296
Fayziyev Orifjon Olimovich	
РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ И ЦИФРОВЫХ НАВЫКОВ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА.....	1302
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSIYA SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI: O'ZBEKISTON VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR QIYOSIY TAHLILI.....	1310
Mangliyev Bezzod To'raboy o'g'li	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINING TRANSFORMATSIYASI .....	1315
Ruziyev Baxtiyor Salimboyevich	
MEHNAT MUNOSATLARINI TARTIBGA SOLISHDA RAQAMLI PLATFORMALARINING O'RNI .....	1321
I.A.Bakiyeva, S.A.Bozorova	
O'ZBEKISTONDA TURISTIK-REKREATSION INFRATUZILMANING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	1327
Usmanova Zumrad Islamovna	
"YASHIL" XIZMAT KO'RSATISH MODELINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY O'SISHNI RAG'BATLANTIRISH: SOLIQ SIYOSATI VA DAVLAT BOSHQARUVI JIHATIDAN TAHLIL.....	1333
Haqnazarova Yulduz Juraqulovna	
ТРАНСПОРТНАЯ ДОСТУПНОСТЬ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ: ПРОСТРАНСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ И СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА РАЙОНОВ .....	1339
Keunimjaev Muxamedali Kuanyshbaevich	
TRANSPORT INFRATUZILMASI RIVOJLANISHINING HUDUDLARARO IQTISODIY TENGSIZLIKNI KAMAYTIRISHDAGI ROLI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR .....	1344
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING ILMIY TADQIQOTLARDAGI TALQININING ILMIY TAHLILI.....	1350
Ro'ziqulov Shunqor Tohir o'g'li	
BANKLARNING QO'SHILISH VA QO'SHIB OLIH OPERATSIYALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI .....	1356
Azlarova Aziza Axrarovna, Sattorova Nasiba G'anijon qizi	
RAQAMLASHTIRISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISH VA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI .....	1361
Umurzak Ablakulovich Radjabov	



ISHLAB CHIQRADIGAN SANOATNING IQTISODIYOTDAGI TUTGAN O'RNI, AHAMIYATI VA UNING TASNIFLANISHI .....	1366
<b>Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich</b>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUVDAN FOYDALANISH VA SUV ISTE'MOLI TARTIBINI AMALGA OSHIRISH.....	1374
<b>Matkarimov Mansur Maksudovich</b>	
DEVELOPMENT OF HERITAGE-BASED EXCURSION ACTIVITIES IN THE BUKHARA REGION .....	1379
<b>Murodjonov Bahrombek Gulomaliyevich, Istamkhuja Olimovich Davronov, Radjabov Odil Olimovich</b>	
TRANSPORT TURLARI FAOLIYATINI BIRLASHTIRISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISH.....	1385
<b>Giyosidinov Boburbek Baxtiyor o'g'li</b>	
TEMIR YO'L TRANSPORTI RIVOJLANISHIGA HISSA QO'SHGAN OLIMLARNING ILMIY QARASHLARI VA ULARNING ZAMONAVIY XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI.....	1388
<b>Usmonov Shermuhammad Xaydar o'g'li</b>	
JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1391
<b>Ramazonov Shamil Ulug'bek o'g'li</b>	
IJTIMOYIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA AHAMIYATI .....	1396
<b>Muxsiddinov Mansurjon Maxmudjon o'g'li</b>	
QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'ljALLANGAN YERLARNI BOSHQA YER TOIFALARIGA O'TKAZISHNING MIQDORIY VA SIFAT O'ZGARISHLARI.....	1400
<b>Safayev Sanjarbek Zafarbek o'g'li</b>	
МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ЛИКВИДНОСТЬЮ И ДЕНЕЖНОЙ МАССОЙ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА .....	1405
<b>Холмуродов Жавохир Бахтияр ўғли</b>	
NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT BOZORINING O'ZIGA XOS SEGMENTI SIFATIDA .....	1410
<b>Sevunov Turg'unbek Radjabovich</b>	
SURXONDARYO VILOYATIDAGI "ZARCHOB" GESNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	1414
<b>Kurbanova Mehriniso Nematjanovna, Ollanazarov Boburjon Alisher o'g'li</b>	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СЕРВИСНОГО СЕКТОРА УЗБЕКИСТАНА.....	1418
<b>С.А. Исхакова</b>	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA MA'SULIYATLI ISTE'MOLNING EKONOMETRIK TAHLILI.....	1424
<b>Rashitova Nilufar Xatambayevna</b>	
TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT VA ICHKI B2B BOZORIDAGI O'RNI.....	1433
<b>Sapayeva Nilufar Qadamboyevna</b>	
AGROSANOAT KLASTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA BOSHQARISH MODELLARI .....	1441
<b>Yusupova Feruza Yo'ldoshevna</b>	
MINTAQADA ENERGIYA TA'MINOTI TIZIMLARINI OPTIMALLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MODELLARI .....	1449
<b>Masharipov Aziz Axmadjanovich</b>	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH ASOSIDA INVESTITSIYA SALOHİYATINI OSHIRISH .....	1458
<b>Tillayeva Barno Ramizitdinovna</b>	
TO'G'RI SOLIQLARNING XORIY TAJRIBASINI QIYOSIY TAHLILI.....	1463
<b>Ergashov Jamshid Ashurovich</b>	
DAVLAT BUDJETIDAN "YASHIL MAKON" UMUMMILLIY LOYIHASINI AMALGA OSHIRISH UCHUN AJRATILADIGAN MABLAG'LARDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI .....	1471
<b>Umarov Umid Panjiyevich</b>	
XIZMATLAR SOHASIDA INVESTITSION RESURLARNI INNOVATSIYALARGA YO'NALTIRISH MEKANIZMLARI .....	1476
<b>Ashurova Maftuna Ortiq qizi</b>	
NOBANK KREDIT TASHKIOTLARI LIKVIDLIGINI TA'MINLASHNING DOLZARB MASALALARI.....	1483
<b>Uluxo'jayeva Umida Abdullayevna</b>	



OLIY TA'LIM MUASSASALARI REYTING TIZIMI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY BOSHQARUV  
AMALIYOTI ..... 1488  
Xudoyqulov Husen Ahadovich



# OLIV TA'LIM MUASSASALARI REYTING TIZIMI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY BOSHQARUV AMALIYOTI

**Xudoyqulov Husen Ahadovich**

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: [h.khudoykulov@gmail.com](mailto:h.khudoykulov@gmail.com)

ORCID: 0009-0006-1657-8431

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada globallashtirish va raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishda xalqaro (QS, THE) hamda milliy reyting tizimlarining institutsional ahamiyati tadqiq etilgan. Muallif tomonidan qiyosiy tahlil, klasterlash va ierarxik modellashtirish usullari asosida xalqaro indikatorlar bilan milliy boshqaruv mexanizmlari o'rtasidagi nomutanosibliklar aniqlangan. Tadqiqot natijasida oliy ta'lim samaradorligini baholashning "Kirish–Jarayon–Chiqish–Ta'sir" (Input–Process–Output–Impact) tamoyiliga asoslangan integratsiyalashgan strukturaviy modeli ishlab chiqilgan. Shuningdek, maqolada byurokratik nazorat modelidan natijadorlikka yo'naltirilgan avtonom boshqaruv modeliga o'tish, akademik erkinlikni ta'minlash hamda tabaqalashtirilgan reyting yondashuvini joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ilgari surilgan. Tadqiqot doirasida O'zbekiston oliy ta'lim tizimini transformatsiya qilishning strategik yo'nalishlari ham asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, xalqaro reytinglar, institutsional boshqaruv, raqobatbardoshlik, QS/THE, klaster tahlili, akademik erkinlik, KPI, ta'lim sifati, universitet strategiyasi.

**Abstract.** This article examines the institutional significance of international (QS, THE) and national ranking systems in enhancing the competitiveness of higher education institutions in the context of globalization and the digital economy. Using methods of comparative analysis, clustering, and hierarchical modeling, the study identifies discrepancies between international indicators and national governance mechanisms. As a result of the research, an integrated structural model for evaluating the effectiveness of higher education based on the "Input–Process–Output–Impact" principle has been developed. The paper also proposes scientifically grounded recommendations for transitioning from a bureaucratic control model to a result-oriented autonomous governance model, ensuring academic freedom, and implementing a differentiated ranking approach. Furthermore, strategic directions for the transformation of the higher education system of Uzbekistan are proposed.

**Key words:** higher education, university rankings, institutional governance, competitiveness, QS/THE, cluster analysis, academic freedom, KPI, education quality, university strategy.

**Аннотация.** В данной статье исследуется институциональное значение международных (QS, THE) и национальных рейтинговых систем в повышении конкурентоспособности высших учебных заведений в условиях глобализации и цифровой экономики. На основе методов сравнительного анализа, кластеризации и иерархического моделирования выявлены диспропорции между международными индикаторами и национальными механизмами управления. В результате исследования разработана интегрированная структурная модель оценки эффективности высшего образования, основанная на принципе «Вход–Процесс–Выход–Воздействие» (Input–Process–Output–Impact). В статье также представлены научно обоснованные предложения по переходу от модели бюрократического контроля к модели автономного управления, ориентированного на результат, обеспечению академической свободы и внедрению дифференцированного рейтингового подхода. Кроме того, предложены стратегические направления трансформации системы высшего образования Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** высшее образование, международные рейтинги, институциональное управление, конкурентоспособность, QS/THE, кластерный анализ, академическая свобода, KPI, качество образования, стратегия университета.



## KIRISH

XXI asrning uchinchi o'n yilligida jahon iqtisodiyotining bilimga asoslangan rivojlanish paradigmasiga o'tishi inson kapitalini rivojlantirish masalasini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. Ushbu jarayonda oliy ta'lim muassasalari (OTM) nafaqat malakali kadrlar tayyorlovchi maskan, balki innovatsiyalar generatori hamda barqaror iqtisodiy o'sishning muhim drayveri sifatida namoyon bo'lmoqda. Globallashuv jarayonlari oliy ta'lim tizimida raqobat muhitining kuchayishiga olib keldi, bu esa universitetlar faoliyati samaradorligini baholashning universal mezonlariga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirdi. Hozirgi kunda xalqaro reyting tizimlari (QS World University Rankings, Times Higher Education, ARWU va boshqalar) universitetlarning global miqyosdagi obro'si va raqobatbardoshligini belgilovchi muhim indikatorlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda [4].

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030–yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan strategik maqsadlar, xususan, respublika oliy ta'lim muassasalarining xalqaro e'tirof etilgan reytinglarning birinchi 1000 taligiga kirishini ta'minlash vazifasi milliy boshqaruv amaliyotini takomillashtirishni taqozo etadi. Shu bilan birga, xalqaro tajriba va milliy boshqaruv amaliyoti o'rtasidagi ayrim institutsional tafovutlar reyting indikatorlarini milliy boshqaruv tizimiga samarali integratsiya qilish jarayonida muayyan metodologik va tashkiliy masalalarni yuzaga keltirmoqda. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, reyting tizimlaridan samarali foydalanish universitetlar faoliyatini strategik rivojlantirish, ta'lim sifati va ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin [2].

Mazkur tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini baholashda xalqaro reyting metodologiyalari hamda milliy boshqaruv amaliyoti o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikni aniqlash, mavjud institutsional bo'shliqlarni tahlil qilish va OTMlarning strategik rivojlanishini ta'minlovchi samarali boshqaruv modelini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, unda reyting tizimlari shunchaki statistik ko'rsatkichlar majmui sifatida emas, balki institutsional iqtisodiyot nazariyasi nuqtayi nazaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilishning muhim analitik vositasi sifatida ko'rib chiqiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reyting tizimlaridagi o'rni va ularning boshqaruv samaradorligiga ta'siri masalasi so'nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilmoqda. Xususan, A. Rauhvargers (2013) universitet reytinglari global oliy ta'lim tizimida muhim axborot va baholash instrumenti sifatida shakllanganini ta'kidlab, ularning universitet strategiyasi va akademik boshqaruviga sezilarli ta'sir ko'rsatishini qayd etadi. J. Salmi (2009) esa "World-Class University" konsepsiyasini ishlab chiqib, yetakchi universitetlarning muvaffaqiyati institutsional avtonomiya, barqaror moliyalashtirish va kuchli ilmiy salohiyat bilan bog'liqligini asoslab beradi.

Shuningdek, E. Hazelkorn (2015) universitet reytinglari global raqobat muhitida oliy ta'lim siyosatini shakllantiruvchi muhim omilga aylanganini ta'kidlaydi.

S. Marginson (2014) reyting tizimlarining ijtimoiy fanlar rivojiga ta'sirini tahlil qilib, ularning ilmiy faoliyatni xalqaro standartlarga moslashtirishdagi rolini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Van Raan (2005) universitetlarni reytinglash metodologiyasida ayrim konseptual va metodologik muammolar mavjudligini qayd etadi.

Milliy ilmiy adabiyotlarda ham ushbu masala muhim o'rin egallaydi. Jumladan, K. X. Abduraxmanov (2020) hamda S. S. G'ulomov (2019) tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot va inson kapitalini rivojlantirish sharoitida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilmiy salohiyatni oshirish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi ta'kidlanadi. Mazkur ilmiy qarashlar oliy ta'lim muassasalari reyting tizimlarini institutsional boshqaruv bilan integratsiyalash muhimligini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida oliy ta'lim tizimini kompleks o'rganishga qaratilgan bir qator ilmiy-tahliliy usullar qo'llanildi. Avvalo, qiyosiy tahlil (comparative analysis) usuli orqali yetakchi xalqaro reyting agentliklari (QS, THE) metodologiyasi hamda O'zbekiston milliy reyting tizimi indikatorlari o'zaro solishtirildi. Ushbu yondashuv global talablar va milliy rivojlanish imkoniyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va farqlarni aniqlash imkonini berdi.

Ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalarining faoliyat samaradorligini guruhlash maqsadida klasterlash usuli (clustering method) qo'llanildi. Mazkur yondashuv universitetlarni ilmiy salohiyati, ta'lim jarayoni sifati hamda xalqaro integratsiya darajasiga ko'ra tabaqalashtirish, shuningdek, har bir klaster uchun mos strategik rivojlanish yo'nalishlarini belgilash imkonini yaratadi. Klaster tahlili universitetlarning resurs ta'minoti va natijaviylik ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni vizual shaklda tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, boshqaruv tizimidagi vertikal va gorizontal aloqalarni o'rganish maqsadida ierarxik modellashtirish (hierarchical modeling) usulidan foydalanildi. Mazkur metod vazirlik – rektorat – kafedra



darajalaridagi axborot almashinuvi va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonining institutsional xususiyatlarini tahlil qilish imkonini berdi.

To'rtinchidan, benchmarking usuli orqali rivojlangan davlatlarning (AQSh, Buyuk Britaniya, Singapur) "World Class University" loyihalarini boshqarish tajribasi o'rganildi hamda ushbu tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari baholandi.

Tadqiqotning axborot bazasini xalqaro reyting agentliklarining yillik hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining normativ-huquqiy hujjatlari, rasmiy statistika ma'lumotlari hamda muallif tomonidan amalga oshirilgan hujjatlar tahlili (document analysis) natijalari tashkil etadi. Tahlil jarayonida tizimli yondashuv (systems approach) va institutsional nazariya tamoyillariga asoslanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro reyting tizimlari hamda milliy boshqaruv mexanizmlari o'rtasida indikatorlar darajasida muayyan konseptual farqlar mavjud. Mazkur farqlar universitetlar faoliyatini baholash mezonlari, ilmiy tadqiqotlar natijadorligi hamda institutsional boshqaruv yondashuvlarida o'z aksini topadi. Xususan, xalqaro reyting tizimlari ilmiy nashrlar, iqtiboslar indeksi, xalqaro hamkorlik va akademik obro' kabi ko'rsatkichlarga ustuvor ahamiyat bersa, milliy boshqaruv tizimida ko'proq ta'lim jarayonining tashkiliy ko'rsatkichlari va institutsional samaradorlik indikatorlari muhim o'rin egallaydi.

Quyidagi 1-jadvalda xalqaro reyting indikatorlari hamda milliy boshqaruv indikatorlari o'rtasidagi asosiy farqlar qiyosiy tahlil asosida keltirilgan.

1-jadval. Xalqaro reyting indikatorlari va milliy boshqaruv indikatorlarining qiyosiy tahlili

Tahlil mezonlari	Xalqaro reyting tizimlari (QS, THE)	Milliy boshqaruv amaliyoti (O'zbekiston)	Tafovut tahlili (Gap Analysis)
Asosiy e'tibor	Tadqiqot ta'siri (Research Impact) va akademik obro'	O'quv jarayoni samaradorligi va me'yoriy hujjatlar ijrosi	Natijaga yo'naltirilganlik – jarayonni tartibga solishga yo'naltirilgan yondashuv
Ilmiy faoliyat	Scopus/WoS bazalaridagi iqtiboslar, h-indeks	Ilmiy maqolalar soni, mahalliy jurnallar	Sifat ko'rsatkichlari – miqdor ko'rsatkichlariga yo'naltirilganlik
Xalqaro muhit	Xorijiy talabalar va professor-o'qituvchilar ulushi	Xalqaro hamkorlik shartnomalari soni	Institutsional integratsiya – hamkorlikning tashkiliy ko'rsatkichlari
Moliyaviy barqarorlik	Bir talabaga to'g'ri keladigan daromad, ilmiy grantlar	Budjet intizomi va shtatlar jadvali	Investitsion jozibadorlik – resurslardan foydalanishni nazorat qilish
Obro'-e'tibor	Ish beruvchilar va akademik hamjamiyat so'rovlari	Vazirlik monitoringi va baholash natijalari	Tashqi ekspert bahosi – ichki institutsional monitoring

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, xalqaro reyting tizimlari asosan "chiqish" (output) va "ta'sir" (impact) ko'rsatkichlariga ustuvor ahamiyat beradi, milliy boshqaruv tizimi esa ko'proq "kirish" (input) va "jarayon" (process) ko'rsatkichlarini nazorat qilishga yo'naltirilgan. Mazkur yondashuvlar o'rtasidagi farqlar universitetlar faoliyatini strategik boshqarishda turli ustuvor yo'nalishlarning shakllanishiga olib keladi. Bir tomondan, xalqaro reyting talablariga mos ravishda ilmiy tadqiqotlar sifati, nashrlar va iqtiboslar ko'rsatkichlarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi tomondan, milliy boshqaruv tizimi doirasida ta'lim jarayonining tashkiliy samaradorligi va me'yoriy talablarning bajarilishi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois universitetlar faoliyatida resurslarni muvozanatli taqsimlash va strategik ustuvorliklarni uyg'unlashtirish zarurati yuzaga keladi [3].

Mazkur tafovutlarni tizimli ravishda muvofiqlashtirish maqsadida oliy ta'lim samaradorligini baholashning integratsiyalashgan struktural modelini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu model "Kirish–Jarayon–Chiqish" tamoyiliga asoslanib, ta'lim jarayoni resurslari, boshqaruv mexanizmlari va yakuniy natijalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Quyidagi 2-jadvalda "Kirish–Jarayon–Chiqish" (Input–Process–Output) tamoyiliga asoslangan oliy ta'lim samaradorligining taklif etilayotgan struktural modeli keltirilgan.



## 2-jadval. Oliy ta'lim samaradorligining struktural modeli


Bosqichlar	Komponentlar	O'Ichash indikatorlari (KPI)	Kutilayotgan natija
<b>KIRISH (Resources)</b>	Inson kapitali, moliyaviy resurslar, infratuzilma	Ilmiy darajaga ega professor-o'qituvchilar ulushi (%), budjetdan tashqari mablag'lar hajmi	Institutsional salohiyatni shakllantirish
<b>JARAYON (Governance)</b>	Akademik erkinlik, raqamlashtirish, sifat menejmenti tizimi	Qaror qabul qilish tezligi, talabalar qoniqish darajasi	Samarali va shaffof boshqaruv muhiti
<b>CHIQISH (Performance)</b>	Bitiruvchilar sifati, ilmiy mahsulotlar	Bitiruvchilar bandlik darajasi, ilmiy iqtiboslar soni, patentlar	Ijtimoiy-iqtisodiy qiymat yaratish
<b>TA'SIR (Impact)</b>	Jamiyat rivoji, global integratsiya	Universitet brend qiymati, innovatsion ekotizim rivojlanishi	Barqaror rivojlanish va xalqaro raqobatbardoshlik

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy boshqaruv tizimida "Jarayon" komponentiga nisbatan yuqori darajada e'tibor qaratilishi kuzatiladi, bu esa ayrim hollarda "Chiqish" ko'rsatkichlarining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shu bois oliy ta'lim muassasalari faoliyatini baholashda jarayon va natija ko'rsatkichlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Klaster tahlili natijalariga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarini uchta asosiy guruhga ajratish mumkin: "Tadqiqot universitetlari", "Ta'limga ixtisoslashgan universitetlar" hamda "Hududiy (tarmoq) universitetlari". Mazkur tasnif universitetlarning ilmiy salohiyati, ta'lim jarayoni sifati va xalqaro integratsiya darajasiga qarab shakllantirilgan bo'lib, har bir klaster uchun reyting indikatorlarining ustuvorligi turlicha bo'lishi lozimligi aniqlangan.

Quyidagi klaster diagrammasi universitetlarning reyting komponentlari bo'yicha taqsimlanishini vizual tarzda ifodalaydi. Diagrammada gorizontal o'q bo'ylab "Ilmiy tadqiqot salohiyati", vertikal o'q bo'ylab esa "O'qitish sifati va xalqaro integratsiya darajasi" ko'rsatkichlari joylashtirilgan (1-rasm).

## Universitetlar Reyting Komponentlari Bo'yicha Taqsimlanishi



1-rasm. Universitetlarning reyting komponentlari bo'yicha taqsimlanishi

Diagramma tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy oliy ta'lim muassasalarining aksariyati "O'qitish sifati" ko'rsatkichi bo'yicha o'rtacha va nisbatan yuqori natijalarga ega. Biroq "Ilmiy tadqiqot salohiyati" ko'rsatkichi bo'yicha ayrim universitetlar hali rivojlanish imkoniyatlariga ega ekanligi kuzatiladi. Bu holat xalqaro reyting tizimlarida yuqori natijalarga erishish uchun ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni yanada qo'llab-quvvatlovchi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish muhimligini ko'rsatadi. Shuningdek, universitetlarda ilmiy nashrlar faolligini oshirish, xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish hamda innovatsion loyihalarni rivojlantirish reyting ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin.

Institutsional samaradorlikni miqdoriy jihatdan baholash maqsadida taklif etilgan model ma'lumotlari asosida tegishli hisob-kitoblar amalga oshirildi. Olingan natijalar quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval. Institutsional samaradorlik indikatori (model ma'lumotlari asosida)

Universitet tipi	Moliyaviy avtonomiya indeksi (0–1)	Akademik erkinlik indeksi (0–1)	Xalqaro reyting prognozi (ball)	Boshqaruv samaradorligi koeffitsienti
<b>A tipi (milliy flagman universitetlar)</b>	0.75	0.65	45.2	0.82
<b>B tipi (hududiy tayanch universitetlar)</b>	0.45	0.40	28.5	0.55
<b>C tipi (ixtisoslashgan universitetlar)</b>	0.30	0.25	15.0	0.42
<b>Global benchmark</b>	0.90	0.95	85.0	0.96


3-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy avtonomiya hamda akademik erkinlik indeklari oshgani sari universitetlarning xalqaro reytingdagi prognoz ballari va boshqaruv samaradorligi koeffitsiyenti ham o'sish tendensiyasini namoyon etadi. Ushbu natijalar boshqaruv vakolatlarini yanada samarali taqsimlash, shuningdek, fakultet va kafedralar darajasida tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlash orqali boshqaruv jarayonining samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi [1].

Oliy ta'lim boshqaruvining amaldagi ierarxik modelini tahlil qilish boshqaruv tizimidagi axborot almashinuvi va qaror qabul qilish jarayonining institutsional xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Quyidagi ierarxik model diagrammasida amaldagi vertikal boshqaruv tizimi hamda undagi asosiy funksional bog'lanishlar tasvirlangan.

Ierarxik model tahlili shuni ko'rsatadiki, Vazirlik va oliy ta'lim muassasasi rektorati o'rtasidagi aloqalar asosan vertikal boshqaruv tamoyillari asosida shakllangan bo'lib, teskari aloqa (feedback) mexanizmlarini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Shu bilan birga, kafedralar va ilmiy laboratoriyalar – ilmiy mahsulotlar yaratiladigan muhim bo'g'inlar sifatida – strategik qarorlar qabul qilish jarayonida faolroq ishtirok etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va reyting indikatorlariga erishish jarayonida universitetlar faoliyatining natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan reyting natijalari va boshqaruv qarorlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi integratsiyalashgan boshqaruv sxemasi ishlab chiqildi. Mazkur sxema reyting natijalarini faqat statistik ko'rsatkich sifatida qayd etish bilan cheklanmay, ularni strategik rejalashtirish jarayoniga tizimli ravishda integratsiya qilish mexanizmini aks ettiradi.

Taklif etilgan modelga ko'ra, reyting natijalari ma'lumotlar (Data) sifatida tahlil qilinib (Analysis), ular asosida aniq boshqaruv qarorlari (Action) ishlab chiqiladi va ushbu jarayon muntazam monitoring (Monitoring) orqali nazorat qilib boriladi. Eng muhim jihatlardan biri shundaki, ushbu boshqaruv sikliga moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini integratsiya qilish zarur. Ya'ni, yuqori reyting ko'rsatkichlariga erishgan bo'linmalar va xodimlarni qo'shimcha resurslar hamda rag'batlantirish instrumentlari orqali qo'llab-quvvatlash universitetlarning strategik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (2-rasm).



2-rasm. OTM reytingi va boshqaruv jarayonlarining integratsiyalashuv sxemasi



Tadqiqot natijalari xalqaro tajriba hamda milliy amaliyot o'rtasidagi ayrim institutsional tafovutlarni aniqlash imkonini berdi. Birinchidan, xalqaro tajribada reyting tizimlari ko'pincha universitetlarning reputatsion kapitalini oshirish hamda ilmiy natijadorlikni rag'batlantirish vositasi sifatida qo'llaniladi. Milliy boshqaruv amaliyotida esa reyting ko'rsatkichlari ko'pincha davlat boshqaruvi tizimi oldidagi hisobot jarayonlari bilan bog'liq tarzda qo'llanib kelmoqda. Bu holat ayrim ilmiy adabiyotlarda "Goodhart qonuni" deb ataladigan nazariy qarash bilan izohlanadi: ya'ni ko'rsatkichlar strategik maqsadga aylanganda, ularning obyektiv o'lchov sifatidagi funksiyasi qisman susayishi mumkin. Shuning uchun reyting indikatorlaridan foydalanishda ularni strategik rivojlanish vositasi sifatida qo'llash muhim hisoblanadi [5].

Ikkinchidan, boshqaruv tizimidagi markazlashuv darajasi universitetlarning institutsional moslashuvchanligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan universitetlar (masalan, MIT yoki Oksford universiteti) yuqori darajadagi institutsional avtonomiya bilan ajralib turadi. O'zbekistonda ham moliyaviy va akademik mustaqillikni kengaytirish bo'yicha bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq ayrim normativ jarayonlarda markaziy boshqaruv organlarining muvofiqlashtiruvchi roli saqlanib qolmoqda. Xususan, shtat jadvalarini shakllantirish, o'quv dasturlarini yangilash hamda ilmiy grantlarni taqsimlash jarayonlarida muvofiqlashtiruvchi boshqaruv mexanizmlari muhim o'rin tutadi. Mazkur jarayonlarni yanada optimallashtirish universitetlarning tezkor qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Uchinchidan, xalqaro ilmiy nashrlar faolligining oshishi milliy ilmiy maktablar rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ijobiy jihatdan qaraganda, xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalarida (Scopus, WoS) indekslangan maqolalar sonining ortishi ilmiy faoliyatning global maydonga integratsiyasini kuchaytirdi. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar sifatini barqaror ta'minlash, nashrlar tanlovi va ilmiy etikaga rioya qilish masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Sifatli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun zarur vaqt va resurslarni samarali boshqarish reyting indikatorlariga erishish jarayonining muhim omili hisoblanadi.

Shuningdek, muhokama qilinishi lozim bo'lgan yana bir muhim jihat – bu ixtisoslashuv masalasidir. Xalqaro reyting metodologiyalari ko'pincha kompleks universitetlar (comprehensive universities) uchun ishlab chiqilgan. O'zbekistondagi ko'plab ixtisoslashgan institutlar (masalan, qishloq xo'jaligi yoki tibbiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari) umumiy reyting metodologiyasida o'z ilmiy salohiyatini to'liq aks ettira olmasligi mumkin. Shu sababli milliy boshqaruv tizimida tabaqalashtirilgan reyting yondashuvini joriy etish hamda har bir oliy ta'lim muassasasining strategik missiyasidan kelib chiqib baholash mezonlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Boshqaruv samaradorligini oshirishda raqamlashtirish jarayonlari ham muhim o'rin tutadi. Hozirgi vaqtda ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish jarayonlarida inson omilining yuqori ulushi ayrim hollarda reyting natijalarining aniqligi va shaffofligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Integratsiyalashgan axborot tizimlarining (masalan, HEMIS va boshqa platformalar) to'liq quvvatda ishlashi hamda ularning xalqaro ma'lumotlar bazalari bilan sinxronlashtirilishi boshqaruv qarorlarini qabul qilishning aniqligi va tezkorligini oshirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot va tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalar hamda amaliy takliflar shakllantirildi:

1. Institutsional transformatsiya. Oliy ta'lim muassasalarining reyting tizimlaridagi natijalari ularning boshqaruv modeli bilan bevosita bog'liq. Shu bois markazlashgan nazorat modelidan natijadorlikka yo'naltirilgan avtonom boshqaruv modeliga bosqichma-bosqich o'tish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayon moliyaviy mustaqillikni kengaytirish va akademik erkinlikni huquqiy jihatdan mustahkamlash orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

2. Sifat ustuvorligi. Reyting ko'rsatkichlariga erishishda miqdoriy ko'rsatkichlardan (maqolalar soni, talabalar soni) ko'ra sifat ko'rsatkichlariga (iqtiboslar indeksi, bitiruvchilarning bandlik darajasi va ish beruvchilarning baholari) ustuvor ahamiyat qaratish zarur. Davlat tomonidan moliyalashtirish mexanizmlarini aynan ushbu sifat ko'rsatkichlari bilan uyg'unlashtirish oliy ta'lim tizimi samaradorligini oshiradi.

3. Tabaqalashtirilgan yondashuv. Barcha oliy ta'lim muassasalarini yagona mezon asosida baholash har doim ham samarali natija bermaydi. Universitetlarni ularning missiyasi va faoliyat yo'nalishiga ko'ra klasterlarga ajratish hamda har bir klaster uchun mos KPI tizimini joriy etish boshqaruv samaradorligini oshiradi.

4. Ilmiy ekotizimni rivojlantirish. Tadqiqot natijalari ilmiy salohiyatni yanada mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi. Shu maqsadda oliy ta'lim muassasalari huzurida ilmiy natijalarni tijoratlashtirish markazlari, spin-off kompaniyalar va texnoparklarni rivojlantirish, shuningdek, venchur moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish tavsiya etiladi.

5. Kadrlar siyosatini takomillashtirish. Xalqaro reytinglar talablariga mos keladigan professor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirish uchun postdoctoral (Post-doc) tadqiqot tizimini kengaytirish hamda xorijiy olimlarni jalb qilish jarayonlaridagi tashkiliy tartiblarni yanada soddalashtirish muhim hisoblanadi.



6. Raqamli boshqaruvni rivojlantirish. Reyting ma'lumotlarini yig'ish va tahlil qilishning avtomatlashtirilgan milliy platformasini yaratish inson omilini kamaytirish va ma'lumotlarning ishonchligini oshirishga xizmat qiladi.

7. Strategik alyanslarni kengaytirish. Mahalliy oliy ta'lim muassasalarining yetakchi xorijiy universitetlar bilan konsorsiumlar tuzishi, qo'shma ta'lim dasturlari va ilmiy loyihalarni amalga oshirishi nafaqat reyting ko'rsatkichlarini yaxshilashga, balki zamonaviy boshqaruv tajribalarini transfer qilishga ham yordam beradi.

8. Teskari aloqa mexanizmlarini rivojlantirish. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida talabalar, bitiruvchilar va ish beruvchilarning fikrini inobatga oluvchi doimiy monitoring tizimlarini (feedback loops) institutsional darajada joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Muallifning konseptual hissasi shundan iboratki, mazkur tadqiqotda reyting tizimlari izolyatsiya qilingan fenomen sifatida emas, balki milliy institutsional muhit hamda boshqaruv an'analari bilan o'zaro bog'liq kompleks tizim sifatida o'rganildi. Taklif etilgan "Kirish–Jarayon–Chiqish–Ta'sir" (Input–Process–Output–Impact) modeli O'zbekiston oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019–yil 8–oktyabr). "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030–yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–5847–son Farmon. <https://lex.uz/docs/4545884>
2. Rauhvargers, A. (2013). Global University Rankings and Their Impact: Report II. European University Association. <https://www.eua.eu/publications/reports/global-university-rankings-and-their-impact-report-ii.html>
3. Salmi, J. (2009). The Challenge of Establishing World-Class Universities. Washington, DC: The World Bank. <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/06255c79-659b-5e82-854c-31e45b474436>
4. Hazelkorn, E. (2015). Rankings and the Reshaping of Higher Education: The Battle for World-Class Excellence. London: Palgrave Macmillan. [https://www.researchgate.net/publication/274379817\\_Rankings\\_and\\_the\\_Reshaping\\_of\\_Higher\\_Education\\_The\\_Battle\\_for\\_World-Class\\_Excellence](https://www.researchgate.net/publication/274379817_Rankings_and_the_Reshaping_of_Higher_Education_The_Battle_for_World-Class_Excellence)
5. Marginson, S. (2014). University Rankings and Social Science. European Journal of Education, 49(1), 45–59.
6. Altbach, P. G. (2013). The International Imperative in Higher Education. Rotterdam: Sense Publishers.
7. Abduraxmanov, K. X. (2020). Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan.
8. Locke, W., et al. (2011). The Methodology of International University Rankings. Bristol: Higher Education Funding Council for England.
9. Sadlak, J., & Liu, N. C. (2007). The World-Class University and Ranking: Aiming beyond Status. Dordrecht: Springer.
10. Van Raan, A. F. J. (2005). Fatal Attraction: Conceptual and Methodological Problems in the Ranking of Universities. Scientometrics, 62(1), 133–143.
11. G'ulomov, S. S. (2019). Raqamli iqtisodiyot va uning oliy ta'limdagi istiqbollari. Toshkent: Iqtisodiyot.
12. Shin, J. C., & Toutkoushian, R. K. (2011). University Rankings: Theoretical Basis, Methodology and Impacts on Global Higher Education. Dordrecht: Springer.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 2

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---